# ARAB VA O`ZBEK TILLARINING QIYOSIY - LINGVISTIK TAHLILI

**Rustamova Mubinaxon Ravshanjon qizi**
Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
Arab tili filologiyasi yo`nalishi
Ilmiy maslahatchi: **Sadoqatoy Bahodirovna**
https://doi.org/10.5281/zenodo.24163433

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada arab va o`zbek tillarining kelib chiqishi,grammatik tuzilishi,fonetik va leksik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qlinadi.Shuningdek,ikki til o`rtasidagi o`xshashlik va farqlar ,arab tilidan o`zbek tiliga o`zlashgan so`zlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so`zlar**. Arab tili,o`zbek tili,grammatika,fonetik va leksik xususiyat,o`zlashgan so`zlar.

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of the origins, grammatical structures, phonetic and lexical features of the Arabic and Uzbek languages. It also discusses the similarities and differences between the two languages, as well as words borrowed from Arabic into Uzbek and their role in the Uzbek language.

**Keywords:** Arabic language, Uzbek language, grammar, phonetic features, lexical features, loanwords.

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительный анализ происхождения, грамматической структуры, фонетических и лексических особенностей арабского и узбекского языков. Также рассматриваются сходства и различия между двумя языками, заимствованные из арабского языка слова в узбекском языке и их роль в его развитии.

**Ключевые слова:** арабский язык, узбекский язык, грамматика, фонетические особенности, лексические особенности, заимствованные слова.

KIRISH

Til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi bo`lib,har bir xalqning tarixi,madaniyati va ma`naviy qadriyatlarini o`zida aks ettiradi.Dunyoda taxminan 7000 dan ortiq til mavjud bo`lib,ular bir-biridan grammatik qurilishi va lug`at tarkibiga ko`ra bir-biridan farq qiladi.

Arab va O`zbek tillari o`ziga xos tarkibga ega bo`lgan tillardir.Arab tili somiy tillar oilasiga mansub,Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillaridan biridir,o`zbek tili esa tukiy tillar oilasiga mansub.Ushbu ikki til o`rtasida juda ko`p bog`liqliklar,xususan,tarixiy va diniy aloqalar shakllangan.Arab va o`zbek tillarini qiyosiy ya`ni taqqoslab o`rganish ,ularning grammatik xususiyatlarini chuqurroq anglash,tarjimada farqlarini tushunish,lug`at yodlash ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Hammamizga ma`lumki,arab va o`zbek tillari o`rtasidagi lingvistik aloqalarning shakllanishida VII-VIII asrlardagi tarixiy voqealar muhim o`rin tutadi. Ummaviylar xalifaligi davrida arab qo`shinlarining Movorounnahr hududiga yurishlari natijasida arab tili va islom madaniyatining O`rta



Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Osiyoga ta`siri kuchaydi.Bu jarayon o`zbek tiliga bir necha jihatdan ta`sir ko`rsatgan.Birinchidan,Arab tilidan ko`plab so`zlar o`zbek tiliga kirib kelgan.Masalan:ilm,kitob,maktab,muallim,tarix,adabiyot,adolat,marifat,madaniyat va tafakkur kabi so`zlar.Ikkinchidan,VIII-IX asrlarda Arab yozuvi islom dini tarqalishi bilan O`zbekiston hududiga kirib keldi va 1929-yil ya`ni lotin yozuvi shakllangunicha foydalanilgan.Bundan tashqari,arab tili ilm-fan va diniy ta`limning muhim tillaridan biriga aylandi.Ko`plab o`zbek allomalari arab tilida ilmiy asarlar yozdi.Misol uchun,Muhammad al-Xorazmiy ``Al-kitob al-muxtasar fir hisob al-jabr val-muqobala`` asari, Abu Rayhon Beruniy ``Kitob al-Hind`` Abu Ali Ibn Sino ``Al-Qonun fit-tibb``, Abu Nasr Farobiy ``Ihso al-ulum`` ,Muhammad az-Zamaxshariy ``Al-Kashshof`` ``Al-Mufassal``asarlari kiradi.

Ikki til o`rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning grammatik qurilishida namoyon bo`ladi.Arab tilida otlar grammatik jinsga ega.Ular muzakkar(erkak jins) va muannas (ayol jins )shakllariga bo`linadi va so`z oxiriga tun qo`shimchasini qo`shish orqali farqlanadi.O`zbek tilida esa jins kategoriyasi mavjud emas,erkak va ayollarga nisbatan bir xil so`z ishlatilishi mumkin.Arab tilida otlar birlik,ikkilik va ko`plik shakllariga ega,o`zbek tilida asosan,birlik va ko`plik qo`llaniladi.Yana bir muhim farqi shundaki,arab tilida 28 ta harf mavjud bo`lib,ularning hammasi undosh harflar,3 ta unli tovush mavjud :alif,vav,yaa.O`zbek tilida 26 ta harf bor,ularning 6 tasi unli harflardir:a,i,e,o,u,o`.Shuningdek,arab yozuvi o`ngdan chapga ,o`zbek yozuvi chapdan o`ngga qarab yoziladi.

Arab va O`zbek tillari sintaksis jihatdan ham bir-biridan farq qiladi.O`zbek tilida gapning egasi boshida,kesim oxirida keladi.Arab tilida kesim birinchi,qolgan bo`laklar undan keyin keladi.Demak,o`zbek tilida ega+to`ldiruvchi+kesim bo`lsa,arab tilida kesim+ega+to`ldiruvchi shaklida gap tuziladi.

Ushbu maqolada arab va o`zbek tillari fonetika,grammatika,sintaksis va lug`at boyligi jihatidan solishtirildi.Tadqiqot natijalariga ko`ra,arab tili grammatika va talaffuz jihatidan ancha murakkab,lekin so`zlarning uch undoshli o`zaklardan turli qoliplar asosida hosil bo`lishi yangi so`zlarning ma`nosini osonroq tushunishga yordam beradi.O`zbek tilining grammatik jins kategoriyasi mavjud emasligi,so`zlarning grammatik shakllari asosan qo`shimchalar orqali hosil qilinishi qulay,ammo ularning ketma-ket qo`llanilishi qiyinchilik tug`dirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda,arab va o`zbek tillari kelib chiqishi va grammatik qurilishi,turli xil oilaga mansubligi jihatidan bir-biridan farq qilsada,ular o`rtasida ko`p asrlik tarixiy,ilmiy va diniy aloqalar mavjud.Arab tili o`zbek tili lug`at boyligiga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatgan.Bugungi kunda ko`plab arabcha so`zlar o`zbek tilida faol qo`llanilmoqda.Bu o`z navbatida arab tilini o`rganayotgan talabalar uchun o`zbek va arab tillarini taqqoslab yangi grammatik qoidalarni osonroq tushunish,so`z boyligini oshirish hamda tarjima ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.\

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Nurmonov A. O`zbek tilshunosligi tarixi.-Toshkent.
2. Zamonaviy arab tili grammatiaksiga oid o`quv qo`llanmalar.
3. Ibrohimov N. Yusupov M. Arab tili grammatikasi-Toshkent,2024
4. O`zbek tilining izohli lug`ati.5 jildlik.-Toshkent.



Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.